

“Axborot texnologiyalari” fanidan
“Fayllarni arxivlash”
mavzusini o’tish jarayonida yangi
pedagogik texnologiyani qo’llash bo’yicha

USLUBIY ISHLANMA

Buxoro-2011

"Fayllarni arxivlash" **mavzusidagi uslubiy ishlanmaga**

TAQRIZ

Hozirgi davrda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, Respublikamizda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo'lganidek, axborot texnologiyalari rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki kompyuter ta'limning imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning o'ziga xosligi ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat.

Hisoblash texnikasining keng yoyilishi va shaxsiy kompyuterlarning turli faoliyat sohalariga joriy etilishi tufayli bugungi kunda har qanday korxona yoki tashkilotning ishi zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llamay amalga oshmaydi. Shunday qilib axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatishni avtomatlashtirish asoslarini bilish mutaxassislarni qayta tayyorlash kurslari tinglovchisiga mehnat bozorida raqobatdosh bo'lish, qiziqarli va istiqbolli ish topa olish imkoniga ega bo'lishi uchun juda zarur.

Dars o'tish jarayonida mavzularning maqsadidan kelib chiqib, kompyuterda mavjud fayllarni arxivlash, ularning o'lchamini kichraytirib, himoyalash orqali belgilangan mezonlarni qondirishga mo'ljallangan so'rovlar bilan ishlash bir necha usullar orqali olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalarning mustaqil fikrlashlari va shu fanga qiziqishlari ortadi.

" Fayllarni arxivlash " mavzusidagi uslubiy ishlanmaga

TAQRIZ

Hisoblash texnikasining keng yoyilishi va shaxsiy kompyuterlarning turli faoliyat sohalariga joriy etilishi tufayli bugungi kunda har qanday korxona yoki tashkilotning ishi zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llamay amalga oshmaydi. Shunday qilib, axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatishni avtomatlashtirish asoslarini bilish mutaxassislarni qayta tayorlash kurslari tinglovchisiga mehnat bozorida raqobatdosh bo'lish, qiziqarli va istiqbolli ish topa olish imkoniga ega bo'lishi uchun juda zarur.

"Iqtisodiy va siyosiy sohadaga barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insontii tarbiyalash, ta'lim va ma'orifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan bin bo'lib qoladi", - deb ta'kidlagan edilar Prezidentimiz I.Karimov o'z ma'ruzalarida.

Shu bois istiqlool yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish milliy ta'lim-tarbiya rizimini takomillashtirish, uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Dars o'tish jarayonida mavzularning maqsadidan kelib chiqib, kompyuterda mavjud fayllarni arxivlash, ularning o'lchamini kichraytirib, himoyalash orqali belgilangan mezonlarni qondirishga mo'ljallangan so'rovlar bilan ishlash bir necha usullar orqali olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalarning mustaqil fikrlashlari va shu fanga qiziqishlari ortadi.

Kirish

O'zbekistonda ta'lim tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilyapti: ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy, mafkuraviy sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiya tajribalarini o'rganish va tadqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

Pedagogika fanida o'qitish jarayoning 2 tomoni mavjud:

-o'quvchi tomonidan bajariladigan o'quv faoliyati;

-o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati yig'indisi.

Hozirgi paytda o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayoning tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligi va ayniqsa fan-texnika taraqqiyotining tezkor rivojlanish bosqichida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangicha yondashish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Biz pedagogik texnologiya deganda loyihalangan o'quv tarbiyaviy jarayonini amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiy me'yorlar va talablari tushunamiz.

Dars jarayonida aqliy hujum, texnik vositalardan foydalanish, o'quvchi va o'qituvchining dasturli faoliyati munozara va boshqa usullardan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi.

Ushbu uslubiy ishlanma "Muxosaba hisobi" yo'nalishi uchun mo'ljallangan. Ammo boshqa yo'nalishlar uchun ham qo'llanma sifatida ishlatilishi mumkin.

Dars mavzusi: FAYLLARNI ARXIVLASH

Reja:

- 1. Arxivlash (arxivator) dasturlari**
- 2. Fayllarni arxivlash va arxiv fayllarni ochish**
- 3. Arxiv fayllarni tekshirish**

Operatsion sistema asosiy dasturiy ta`minot bo`lib, uning asosida ko`plab amaliy dasturlar faol bo`lishi mumkin. Bunday dasturlarga arxivatorlar (misol uchun Winzip) va antiviruslar (misol uchun Norton) kiradi.

Ma`lumki, kompyuterlarda o`zaro ma`lumotlar almashinuvini osonlashtirish maqsadida turli xil hajmdagi disketlardan foydalaniladi. Lekin ba`zan shu disketlar ham kattaroq hajmdagi ma`lumotlarni o`ziga sig`dirolmay, ma`lumot almashuvi jarayoniga etarli muammolar tug`dirishga sabab bo`ladi, Bundan tashqari, kompyuterni ishlatish jarayonida magnit diskga ko`p bor murojaat etishi natijasida diskdagi axborotlar ishdan chiqishi mumkin. Shular va shu kabi boshqa muammolarni bartaraf qilish maqsadida kompyuter texnologiyasiga «Arxivlash» degan yangi usul kiritildi. Arxivlash - ko`rsatilgan fayllarni siqib, umumiy bitta nom bilan saqlash. Shundan so`ng turli xil sabablarga ko`ra magnit diskdagi axborotlarning ishdan chiqishi va yo`qolib ketishi unchalik xavf tug`dirmay qoldi va eng asosiysi kompyuter texnikasi uchun muhimligi jihatidan birinchi o`rinda turadigan «xotiradan joy egallash» masalasiga bir-muncha erkinlik berildi.

Arxivlash (arxivator) dasturlari — diskda joyni tejash maqsadida fayllar hajmini kichraytirishga imkon beruvchi dasturlar. Ular turlicha ko'rinishda ishlatilsa-da, ishlash tamoyili bir xil: fayllarda aynan takrorlanadigan o'rinlar mavjud bo'lib, ularni diskda to'liq saqlash mazmunsizdir. Arxivlash dasturlarining vazifasi takrorlanadigan shunday bo'laklarni topib, ularning o'rniga boshqa biror ma'lumotni yozish hamda ularning ketma-ketligini aniq ko'rsatishdan iboratdir. Bundan ko'rinadiki, turli fayllar uchun ularning siqilganlik darajasi turlicha bo'ladi. Masalan, matn yozilgan fayllar 2 martagacha siqilsa, rasmlarni tasvirlovchi fayllar to'rt, hatto besh martagacha siqiladi. Dasturlar

ifodalangan fayllar esa juda kam—1% ga yaqin siqiladi. Lpafiba-qilib aytganda arxivlash dasturlari fayllar hajmini 1,5-2 barobar qisqartirishga imkon beradi.

Arxivlash dasturlari qo'llaniladigan matematik usullar, arxivlash, arxivni ochish tezligi va eng asosiysi siqish samaradorligi bilan bir-biridan farq qiladi. Arxivlash dasturlaridan yetarli darajada tez va yaxshi ishlaydiganlari PKZIP, LHARC, ARJ, RAR dasturlaridir. **WIN RAR, PKZIP, ARJ**

Arxiv fayl yagona faylga birlashtirilgan bir yoki bir necha faylnin siqilgan holdagi ko'rinishi bo'lib, undan kerakli hollarda fayllarni dastlabki ko'rinishda chiqarib olish mumkin. Arxiv fayli undagi fayllar nomlarini ko'rsatuvchi mundarijaga ega bo'ladi.

PKZIP / PKUNZIP va ARJ dasturlari arxiv fayllarining nomlari odatda quyidagi kengaytmalarga ega bo'ladi:

ZIP - PKZIP / PKUNZIP dasturlari arxiv fayllari uchun;

ARJ — ARJ dasturi arxiv fayllari uchun.

Dastlab bir marta yaratilib olingandan keyin uning ustida ko'p ishlandi va natijada arxivlashning bir qancha turlari vujudga keldi. DOS operatsion sistema ostida ishlaydigan ARJ, RKZIR, WINRAR arxivatorlari yaratildi. Fayl yoki fayllar arxivlanganda arxiv fayli hosil bo'ladi va ularda arxivning mundarijasi tashkil etiladi. Arxiv natijasida arxivda qaysi fayllar borligi haqida ma'lumot olish mumkin. Arxiv mundarijasida arxivdagi har bir fayl uchun quyidagi ma'lumotlar saqlanadi:

- fayl nomi
- fayl saqlangan katalog haqida ma'lumot
- faylning oxirgi modifikatsiyasining kuni va vaqti;
- diskdagi va arxivdagi faylning uzunligi
- arxivdagi har bir faylni davriy nazorat qilish uchun maxsus kod Bu kod arxivni butunligini tekshirish uchun foydalaniladi.

Arxivlash jarayonida fayllar siqiladi. SHuning uchun ham arxivlashda siqish darajasi tushunchasi kiritilgan. Arxivlashda siqish darajasi deganda, faylning siqilgandan keyingi hajmining uzunligining boshlang'ich hajmi nisbatiga aytiladi. Masalan, faylning boshlang'ich hajmi 100 kb bo'lib, uning siqilgandai keyingi hajmi 10 kb bo'lsa, ARJ arxivatori siqish darajasini 10 foiz deb, RKZIR arxivatori esa 90 foiz deb (boshlang'ich hajm necha foizga qisqarganligini) ko'rsatadi.

ARJ arxivatori yordamida har qanday o'lchamdagi va har qanday hajmdagi fayllarni bir necha xil usul bilan siqish mumkin. Tomlarga

bo`lib arxivlash qism kataloglar bilan birgalikda arxivlash, yuqori zichlikda arxivlash, o`zi ochiladigan qilib arxivlash, parol` qo`yib arxivlash va hokazolar shular jumlasidandir. Arxiv fayl yagona faylga joylashtirilgan va kerak bo`lgan paytda muayyan holatdan avvalgi holiga qaytarish mumkin bo`lgan, bir yoki bir nechta fayllar to`plamini siqilgan holda o`zida mujassamlashtirgan fayldir. Bir narsani yodda tutish kerakki, arxivlangan fayl o`z holiga qaytarilmasa, ya`ni arxivdan ochilmasa, uni ishlatish mumkin emas.

Ko`p tomli arxivlar

Ba`zan paytlarda katta o`lchamdagi fayl yoki fayllar to`plamini bo`laklarga bo`lib arxivlashga ehtiyoj tug`iladi. Chunki katta hajmdagi ma`lumotning arxiv holati ham yana etarlicha kattaligicha qoladi. SHunday paytda ARJ dasturi bir necha fayldan iborat arxivlar tuzish imkonini beradi. Bunday arxivlar ko`p tomli arxivlar deyiladi. Tomlarga bo`lib arxivlash arxivatorning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Ko`p tomli arxivlar bir-biridan kengaytmasiga ko`ra farq qiladi. Odatda birinchi faylning kengaytmasi rar bo`ladi, keyingilari esa mos ravishda rar1, rar2 va hokazo ko`rnishida bo`ladi.


Hozirgi kunda WINDOWS operatsion sistema ostida ishlaydigan RKZIR, WINRAR va shu kabi boshqa arxivatorlar turlari yaratilgan. Lekin, insoniyat hamisha yangilikka, qulaylikka intilib yashashini hisobga olsak, demak, bundan buyon ham bulardan qulayroq, yana ham keng imkoniyatga ega bo`lgan yangi-yangi arxivator dasturlari yaratilmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Zero XXI asr kompyuter asri bo`lib qolishi kerak deb bejiz aytilmagan.

Winzip dasturining ish usuli

Winzip dasturining ikki ish usuli: Winzip Wizard (Master Winzip) va Winzip Classic (Klassik usuli) mavjud.

Ish usulini tanlashni **Winzip** dasturini kompyuteringizga o`rnatgandan so`ng amalga oshirishingiz mumkin. Ish davomida esa boshqaruv elementlari yordamida bimalol bir usuldan boshqa usulga o`tish mumkin.

Winzip Wizard usuli soddaroq usul bo`lib, bir marotabali ma`lum vazifani - hosil bo`lgan faylni arxivdan chiqarishga mo`ljallangan.



Arxivlardan chiqarish

Winzip dasturini boshlang'ich menyu orqali ishga tushiring.


Chiqarishingiz kerak bo`lgan arxivni oching. Buning uchun Winzip Wizard bosh oynasida File Open Archive (Fayl - arxiv ochish)ni tanlang. Yoki WinZip bosh oynasida Oren (chiqarish) tugmasini bosing. Agar arxiv qattiq diskda joylashgan bo`lsa ish mobaynida ilgari ochilgan bo`lishi ham mumkin. Bu holda arxivni favorites (taylangan) buyruq tugmasi orqali ochish qulayroqdir.

Bu buyruq tugmasini birinchi bor qo`llaganingizda, WinZip shaxsiy kompyuterning barcha qattiq diskklarini ko`rib chiqib, WinZip kengligiga ega fayllarni bitta ro`yxatga to`plab qo`yadi. Keyingi bor Zip kengligidagi fayllarga favorites (Tanlangan) buyruq tugmasini bir marotaba bosish orqali ochish qulay bo`lib qoladi.

Agar jildlar ro`yxati haddan tashqari kattalashib ketgan bo`lsa, uni saralab kerak bo`lmaganlarini o`chirib tashlab kichraytirish mumkin. Buning uchun Options (Parametrlar) tugmasidan foydalanasiz. Bu tugma Winzip options mulosot oynasini ochadi. Belgilangan jildlar Remove Folder (jildni o`chirish) tugmasi yordamida o`chiriladi. Yoki, aksincha, tanlangan ro`yxatga yangi jildni qo`shish kerak bo`lsa, bu Add a folder to list (Jildni ro`yxatga qo`shish) tugmasi yordamida amalga oshiriladi.

Arxivni ko`rib chiqish

Buning uchun WinZip bosh oynasida Actions-View (Harakat - Ko`rish) menyusi yoki View (Ko`rish) tugmasini tanlang. Bu menyu yoki tugma bosilsa View (Ko`rish) muloqot oynasi ochiladi.



Turli fayllarni turli vositalar yordamida ko`rish mumkin. WinZip so`rovsiz fayllarni ko`rish uchun tanlaydigan dastur, operatsion sistemada o`rnatilgan dasturlardan shu kenglikdagi nomi bilan mos bo`ladi. Xohishga ko`ra o`zining o`rnatilgan vositasini, WinZip dasturini ko`rish uchun qo`llash mumkin. Lekin bu dastur, so`rovsiz tanlovchi, standart sistemali dastur Bloknoutga nisbatan uncha yaxshi emas.

(Ko`rish vositasi) o`tkazgichini yoqib, ko`rish dasturini o`zingiz tanlab olishingiz mumkin. Bu rasml, ovozli va tasviriy fayllarni ko`rishda maqsadga muvofiqdir,

Arxivlardan butunlay yoki qisman, ichidan kerakli fayllarni tanlab chiqarish mumkin. Oldindan ochilgan arxivni chiqarish uchun (Harakat - Olish) buyruq qatori menyusidan foydalaniladi, Agar barcha fayllarni arxivdan chiqarish zaruriyati bo`lmasa, unda arxiv ro`yxatidan tanlangan fayllarni avval sichqonni chap tugmasini bosib belgilab olish zarur.

1. Extract - Olish buyrug'i yordamida shunday nomlangan muloqot oynasi ochiladi.

2. Arxivdan chiqarish lozim bo`lgan fayllarni joylash uchun Disklar va Jildlar panelida jild tanlang.

3. Extract To ... ga olish maydonchasida jildni nomi so`rovsiz tanlash asosida qo`yiladi. Buni yuqorida aytib o`tilgandek «Actions -

G'older buyrug'i orqali ochiladigan «Folders» - «Jildlar» muloqot oynasida ko'rsatish mumkin.

4. Agar istalgan jild mavjud bo'lmasa, uni «New folders» - yangi jild hosil qilish (Sozdat' papku) buyruq tugmasi orqali hosil qilinadi.

5. Fayls (Faylar) gruppasi o'tkazgichlari tanlangan fayllardan foydalanish imkonini beradi. Oxirgisi avvalgilaridan fayllar ko'rinishini belgilash bilan farq qiladi, misol uchun: *. Bmp. Bunday sozlanganda arxivdan faqat .VMR kengligidagi rasmlar olinadi, xolos.

6. Berilgan axborotlarni tiklash va rezerv nusxalash vositasi sifatida WinZip dasturi qo'llanganda quyidagilar belgilanishi shart:

- bir xil nomlangan fayllari almashtirish.

- fayllar almashtirilmasin, agar mavjud fayl keyin tuzilgan kun bilan ko'rsatilgan bo'lsa. Bu belgilash avvalgisi belgilangan bo'lsa belgilanishi kerak arxiv jildlarini tuzilishi saqlansin. Muhim belgi bo'lib, amalda doim belgilanishi shart. Bu belgilanmasa, arxivning har xil jildlarida saqlanayotgan barcha fayllar umumiy bir jildga olinib aralashib ketishi mumkin. Keyincha bu fayllar bilan ishlash mumkin bo'lmay qolishi ehtimoldan xoli emas.

7. Arxivdan olish protsessini olish buyruq tugmachasi orqali amalga oshiring.

Arxivlar tuzish

Arxiv tuzishda **Winzip** dasturi uch xil holatda qo'llanadi. Birinchi holatda, arxiv qattiq diskni maxsus jildida tuziladi, chiqish hujjatlariga mo'ljallanadi. Ikkinchi holatda, arxiv o'zgaruvchan axborot tashuvchi disklarda hajmiga ko'ra maxsus tomlarga «bo'linib», tuziladi. Uchinchi holatda, arxiv katta hajmli tashqi axborot tashuvchi qurilmada, yoki qo'shimcha qattiq diskda tuziladi.

1. Barcha fayllarni yig'ing (hamda siqilishi kerak bo'lgan jildlarni ham bitta jildga)

2. Bo'lajak arxiv uchun joy o'ylab ko'ring. Tuzilayotgan arxivlar uchun qaysi jild so'rovsiz qo'llanishini eslab oling. Bu Options Folder buyrug'i orqali ochiladigan «Folders» - «Jildlar» muloqot oynasida tayinlanadi.

Agar arxiv berib yuborish uchun tayyorlanayotgan bo'lsa, uni chiqish fayllari to'plangan jildga tuzish maqsadga muvofiqdir. Agar arxivlash berilgan axborotlarni rezervlash uchun bajarilayotgan bo'lsa,

buning uchun qo`pincha qattiq diskda joylashgan, maxsus jild mavjud bo`lishi kerak.

3. Arxiv tuzish arxiv faylini nomlashdan boshlanadi, bu esa «New» buyruq tugmasini bosish yordamida bajariladi. Bunda Arxiv tuzish muloqot oynasi ochiladi.

4. Berilgan muloqot oynada arxiv joylashtirish uchun jild tanlang va arxiv faylini nomini kiriting. Add dialog ni belgilang. Bu keyingi Arxivga qo`shish - Add deb nomlangan muloqot oynasi avtomatik tarzda ochilishi uchun zarur. Bu oyna yordamida arxivga joylashtiriladigan fayllar tanlanadi. «HA» (OK)ni bosing.

5. Agar barcha aytilganlarni to`g`ri bajargan bo`lsangiz, ko`rsatilgan Arxivga qo`shish-Add muloqot oynasi ochilishi kerak.

Berilgan muloqot oynasida chiqish fayllari saqlanadigan (berilgan misolda bu c:\Moi dokumenti - Mening hujjatlarim) disk va jild tanlanadi. Bitta aniq faylni sichqonni chap tugmasini bosish bilan tanlash mumkin. Shift va CTRL tugmalarini bosish orqali fayllar guruxini tanlash mumkin. Agarda arxivga ochilgan jildda mavjud barcha fayllarni kiritish darkor bo`lsa, Fayl nomi - Imya fayla maydonchasida yozuvni « \* \* » qoldiring. Arxivni to`lishi Qo`shish - Add buyrug`i orqali boshlanadi.

Arxivlashni qo`shimcha parametrlari

Arxivatsiya protsessini ma`lum ma`noda boshqarsa bo`ladi. Buning uchun boshqarish elementlari Arxivga ko`shish - Add oynasida aks ettirilgan.

Fayllarni yangilash tartibi. Bu tartib Harakat ochiladigan ro`yxatida joylashadi. To`rt xil tartib aks etgan.

Add and replace files - Belgilangan fayllarni arxivga qo`shish. Barcha, arxivga qo`shish uchun belgilangan fayllar arxivga qo`shiladi. Agar qandaydir bir xil nomli fayllar arxivda bor bo`lsa, ular yangilariga o`zgartiriladi. Bu tartibdan ko`prok qo`llaniladi.

Freshen existing files - Arxivni yangilash. Bu holatda arxivga barcha belgilangan fayllar tushmaydi, faqatgina shu arxivda borlarigina yangilanadi, xolos.

Move files - Arxivga ko`chirish. Bu tartibda arxivni yangi fayllar bilan to`lishi, fayllarni chiqish jildidan ko`chirish yo`li bilan bajariladi. Bu tartib, arxiv chiqish fayllari joylashgan jildda tuzilganda qulaydir.

Arxivni ishonchli axborot saqlovchi yumshoq disklarda tuzganda bu tartib ko`llanilmaydi.

Update and add files - Yangilash va qo`shish. Yangilash tartibidan farqi shundaki, arxivga nafaqat oldindan mavjud fayllar hamda boshqa belgilangan fayllar ham qo`shiladi.

Siqish darajasi – Compression. Siqish darajasini ochiluvchi ro`yxat Compression yordamida boshqariladi. Ro`yxatda siqishning besh xil darajasi ko`rsatilgan:

Maximum - maksimal siqish;

Normal - oddiy siqish darajasi;

Fast - tez siqish;

Super fast - juda tez siqish;

None - siqmasdan. Bu tartib eng katta ish tezligiga egadir. Bu tartibdan, faqat uzun faylni kichik bo`laklarga «kesish» hamda yumshoq disklarda uzatish uchun, asosan agar chiqish fayli avval o`zga vositalar yordamida siqilgan bo`lsa qo`llaniladi.

Ko`pgina hollarda Normal o`rnatilgani maqsadga muvofiqdir.

Bir necha disklarga taqsimlangan tartibli arxiv tuzish. Bunday tartibni boshqarish faqat arxiv ko`chma axborot tashuvchilarda tuzilganda mumkindir. Tartibni tanlash ochiluvchan ro`yxat Taqsimlangan arxiv - orqali amalga oshiriladi.

Ro`yxatda uzun arxivni taqsimlashni uch tartibi keltirilgan:

- Avtomaticheskoe razbienie - Avtomatik tarzda bo`lish. Diskda bo`sh joy tugashi bilan dastur yangi disk kiritishni taklif etadi va arxivlashni davom ettiradi;

- Birinchi tartibni xuddi o`zi lekin birinchi disk uchun mavjud bo`lgan barcha axborotni o`chirib tashlashni taklif etadi. Ikkinchi va keyingi disklarni ham avtomatik ravishda tozalash mumkin. Buning uchun yangi disk kiritish axboroti mavjud muloqot oynasida arxivni yozishdan avval diskdagi mavjud fayllarni o`chirib tashlashni belgilash kerak;

Jildlar haqida axborot saqlash jildlar - boshqarish elementlari guruhi orqali bajariladi.

Bu erda ichki diriktoriyalarni yoqish - avvalo belgilash shart.

Agar belgilamasak ichki jildlardagi mavjud barcha fayllar, arxivda bitta to`plamga tushib qoladi.

Bunda bir xil nomli fayllari yo`qolib ketishi ehtimoldan xoli emas.

- Jildlar haqida qo`shimcha axborotlarni saqlashni - belgilash, olingan axborotlar bilan birgalikda qaysi jilddan olinganligi haqida qo`shimcha axborotlarni saqlashga imkoniyat tug`diradi.

Fayl atributlari haqida ma`lumot guruhini belgilash yo`li bilan bajariladi.

Bu ma`lumotlardan berilgan axborotlarni arxivlashni avtomatik sistemani tuzishda qo`llaniladi.

Reset archive attributes - belgisi, arxivga qo`shilayotgan barcha fayllardan majburan (Archive) belgisini olib tashlashni ta`minlaydi.


Include system and hidden files - belgisi arxivga atribut hidden yoki system atributli fayllarni qo`shishni ta`minlaydi.

Arxivlarni himoyalash

Winzip dasturida arxivni betona shaxslar ochib ko`rishidan himoyalash imkoniyati mavjud bo`lib, parol kiritish yo`li bilan amalga oshiriladi.

Parol tuzilayotgan arxivga arxiv fayli tuzilgandan so`ng qo`yiladi. Parol qo`yish Arxivga ko`shish – Add muloqot oynasida Parol bilan himoyalash buyruq tugmasi yordamida amalga oshiriladi. Bunda Parol - muloqot oynasi ochiladi.

Agar bu oynada Mask Password belgisini belgilasak parol terilganda belgilar ekranda yulduzcha shaklida ko`rinadi. Bu holda parolni to`g`riligini tasdiqlash maqsadida ikki marotaba terish kerak bo`ladi. Arxivni ochish kerak bo`la albatta parol so`raladi. SHuning uchun esdan chiqarib qo`ymaslik uchun ishonchli joyga yozib qo`yish kerak yoki eslab qolish kerak. Chunki parol topilmasa arxivni ochishni iloji bo`lmaydi, faqat maxsus dasturlar vositasida arxivni ochishga to`g`ri keladi.



O`zi ochiladigan arxivlarni tuzish

Agar arxivlangan faylni boshqa shaxsga berish ehtimoli bo`lsa, u shaxsniig kompyuterida arxivni ochish dasturi bo`lmasligi mumkin yoki bunday dastur bilan ishlamagan bo`lishi ham mumkin. SHularni nazarda tutgan holda o`zi ochiladigan arxiv tuzgan maqsadga muvofiqdir.

O`zi ochiladigan arxivlar tuzilganda oddiy arxivga kichikroq dasturiy modul qo`shiladn. Arxiv nomini kengligi .Zip dan .EXE ga o`zgaradi. Hosil bo`lgan fayl operatsion sistema vositalari yordamida ochilishi mumkin.

Ochilishga buyruq berilganda avtomatik tarzda birlamchi nomlangan jildda ochiladi.

1. Oddiy Zip kengligiga ega arxiv faylini tuzing.
2. Tuzilgan arxivli faylni File - Oren buyruq orqali oching.
3. Bajariluvchi fayl tuzish-Astion - Make .EXE file – buyrug`ini qo`llang, mulokot oynasi ochiladi.

Default unzip to directory maydonida so`rovsiz arxiv o`zi ochiladigan tugmasini yo`li ko`rsatiladi. Agar maydon bo`sh qoldirilsa shaxsiy kompyuterda vaqtincha fayllar saqlanuvchi jild qo`llanadi.

Overwrite by default - So`rovsiz qayta yozish arxivlar ochilayotganda bir xil nomlangan fayllar uchrasa nima qilish kerakligini aniqlaydi.

O`zi ochiladigan arxivlarni tuzish Make.exe buyruq tugmasini bosish bilan ishga tushiriladi.

Yo`l boshlovchida arxiv ochish va tuzish

Zip dasturini qulayliklaridan biri shundan iboratki, dastur operatsion sistemaga o`rnatilayotganda yaxshi o`rnashadi, bu uni samarali qo`llash imkonini beradi, masalan, Yo`l boshlovchi bilan ishlaganda. Yo`l boshlovchida arxiv ochishni ko`rib chiqamiz: Windows Yo`l boshlovchisini ishga tushiring: oynani chap tomonidan Zip - arxiv saqlanayotgan jildni oching, oynani o`ng tomonida sichqonni o`ng tugmasini arxiv fayl belgisinn kursatib bossangiz, kontekstli menyu ochiladi:

Extract to - ga ochish - bu buyruq arxivlarni erkin jildlarga joylashni nazarda tutadi. Belgilab bossangiz Zip dasturi ishga tushib, jild tanlash muloqot oynasi ochiladi. Dastur shu jilga arxivni ochishni taklif etadi.

Extract to folder - Jildga ochish - bu buyruq esa oldingisiga nisbatan ancha qulayroq bo`lib, so`rovsiz tartibda ma`lum jildga arxivni ochish imkoni beradi.

Winzip ni ro`yxatdan o`tgan yo`nalishiga zga foydalanuvchilar esa - O`zi ochiladigan arxiv tuzish buyrug`idan foydalanishlari ham mumkin. Uning yordamida tayyor Zip arxivi asosida o`zi ochiladigan arxiv tayyorlanadi.

Arxivlarni yo`l boshlovchida tuzishni ko`rib chiqamiz:

Windows Yo`l boshlovchisini ishga tushiring.

Oynani chap tomonidan arxivlash uchun saqlanayotgan fayllar bor jildni oching.

Oynani o`ng tomonida arxivlash kerak bo`lgan fayllar(jildlar)ni belgilab ajrating. Guruhli belgilab ajratish kerak bo`lsa tugmalaridan foydalanishingiz mumkin.

Sichqonni o`ng tugmasini bossangiz kontekstli menyu ochiladi, unda Arxivga qo`shish - buyrug`i mavjud.

Bu buyruq yordamida - Arxivga qo`shish muloqot oynasi ochiladi.

Agar fayllarni avvaldan tuzilgan arxivga qo`shish kerak bo`lsa, Orep -Ochish buyruq tugmasidan foydalaniladi. Agar arxiv fayli mavjud bo`lmasa, unda -Tuzish tugmasi yordamida tuziladi.

Fayllarni arxivlash bilan ARJ dasturi misolida tanishib chiqamiz. Agar MATN katalogidagi fayllarni arxivlash lozim bo`lsa, **arj a matn** ko`rinishida buyruq beriladi.

Bu yerda **arj** arxivlash dasturining nomi, — «add» (qo'shimcha qilmoq) so'zidan olingan arxivni tuzish yoki mavjud arxivga fayllarni qo'shimcha qilish amalini anglatuvchi ko'rsatma, **matn** esa hosil

qilinadigan arxiv faylning nomi. Mazkur buyruq berilgandan so'ng *fayllarni arxivga joylashtirish* boshlanadi va bunda har bir faylning nomi hamda uning siqilish foizi ko'rsatib boriladi. Dastur ishi tugagandan so'ng, katalogdagi barcha fayllarni o'z ichiga olgan **matn.arj** arxiv fayli hosil bo'ladi. Joriy katalogdagi fayllarni bir buyruq yordamida *boshqa katalog* yoki *boshqa diskka arxivlash* ham mumkin. Buning uchun buyruq ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

arj a c:\archive\matn yoki arj a a:\matn

Yuqoridagi buyruqlar kiritilgach, ular ko'rsatilgan amallarni bajarishga kirishadilar. Ekranda arxivga kiritilayotgan fayllar nomlari tasvirlanadi. Har bir faylni «siqishda» faylning qayta isnlangan foizi yoki bu jarayonni ko'rsatuvchi gorizontaal chiziqcha hosil bo'ladi. Faylni arxivlash tugatilgach, uning qarshisida siqilish darajasi haqida xabar chiqariladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ARJ va PKZIP dasturlari siqilish darajasi haqidagi xabarni turli xilda ko'rsatadi. Masalan, agar dastlabki faylni 10 marta «siqilsa» ARJ dasturi ishi tugagach 10% ni («siqilgan» fayl uzunligining fayl uzunligiga nisbati), PKZIP esa 90% ni (faylni arxivga joylashtirishda necha foizga «siqilishini») ko'rsatadi.

Arxivni ochish, ya'ni undagi fayllarni olish uchun yuqoridagi buyruqda a harfi o'rniga e («extract» so'zidan olingan — «izvlech'» — chiqarish) harfi qo'yiladi.

arj e matn yoki lharc e matn yoki pkunzir matn

Arxivlarni ochishda faqat oxirgi buyruqda PKZIP o'rniga PKUNZIP dasturi bajarilishini ko'rish mumkin.

Mazkur buyruqlarning bajarilishida fayllar arxivdan ketma-ket chiqariladi va joriy katalogga yoziladi. Navbatdagi biror faylni arxivdan chiqarishda mazkur katalogda shu nomdagi fayl mavjud bo'lsa, kompyuter «Eski faylning ustiga yozaymi?» deb so'raydi. Agar savolga Y (Yes) deb javob berilsa, eski fayl o'rniga yangisini yozadi, aks holda «Arxivdan chiqarilayotgan faylga yangi nom berish kerakmi?» deb so'raydi. Kerak bo'lsa, qanday nom berilishi ham ko'rsatiladi.

Boshqa katalog yoki diskda bo'lgan arxiv fayllarni ochib, undagi fayllarni boshqa katalog yoki diskka joylashtirish mumkin. Buning uchun arxiv fayl joylashgan o'rin va undagi fayl joylashishi lozin bo'lgan o'rin buyruqda to'liq ko'rsatiladi.

Masalan: **arj s a:\matn.arj c:\archive**

Bo'laklarga bo'lib va qirqib arxivlash

Ba'zida fayllar siqilganda ham diskka sig'maydi. Bunday hollarda katalogdagi fayllarni *bo'laklarga bo'lib arxivlash* ham mumkin.

Masalan, katalogdagi bitta **mavzu.txt** faylini arxivlash uchun buyruqni

arj a matn mavzu.txt ko'rinishda, ikkita — **mavzu 1.txt** va **mavzu 2.txt** fayllarini arxivlash uchun buyruqni **arj a matn mavzu 1.txt mavzu 2. txt** ko'rinishda umuman bir nechta faylni arxivlash uchun ularni buyruqda bo'sh joylar bilan ajratib ko'rsatish lozim.

Bir xil, masalan, **txt** kengaytmali fayllarni arxivlash uchun esa buyruq **arj a matn *.txt** ko'rinishida bo'lishi lozim.

Bir necha diskka bo'laklab arxivlangan yuqoridagi arxiv fayllarni S diskdagi mavzular katalogiga ochib joylashtirish uchun **matn.arj** fayli joylashgan 1-diskdan quyidagi buyruq beriladi: **arj e -v matn.arj c:\mavzular.**

Diskdagi arxiv fayl to'liq ochib bo'lingandan so'ng arxivlash dasturi keyingi diskni qo'yishni va «Y» harfini bosishni so'raydi. Shu tartibda barcha disklardagi arxiv fayllar ochiladi.

Amaliy mashg'ulot

TOPSHIRIQ №1

1. Turli kengaytmali fayllarni arxivlab, ularning hajmi qanchaga qisqarishini tekshiring va ularni taqqoslang
2. Bir xildagi faylni turli arxivlash dasturlarida arxivlab, ularning qisqarish darajasini tekshiring va farqini tushuntiring
3. Katalogdagi fayllarni boshqa katalogga arxivlab joylashtiring

TOPSHIRIQ №2

1. Mavjud arxiv faylni yangilang
2. Fayllarni arxivlash jarayonida kompyuter ekranida tasvirlanadigan ma'lumotlarga e'tibor bering va izohlang
3. Arxiv fayllarni oching va undagi o'zgarishlarni tushuntirib bering

TOPSHIRIQ №3

1. Arxivlangan fayl ichidagi ma'lumotlarni oching va bu jarayonni izohlang

2. Arxivda joylashgan fayllar haqidagi ma'lumotni faylga yozing va qog'ozga chop eting
3. Arxivdagi catalog yoki faylning nomini o'zgartirgan holda oching

TOPSHIRIQ №4

1. Arxiv faylga parol qo'yish imkoniyatidan foydalaning
2. Arxiv fayllarning zararlanmaganligini kekshirib ko'ring
3. Quyidagi buyruqlar qanday vazifani bajarishini ayting:
 - a) arj a fizika
 - b) pkrip - a infor
 - d) arj a a:\matem\arxiv
 - g) arj m c:\litsey\tarix
 - e) arj u maruza
 - h) arj e :\infor.arj c:\infor

TOPSHIRIQ №4

Quyidagi ko'rsatmalarni amalga oshiradigan buyruq ko'rinishini yozing:

- a) joriy katalogdagi **infor.doc** va **matem.doc** fayllarini **maruza.arj** fayli sifatida arxivlang;
- b) joriy katalogdagi barcha exe kengaytmali fayllarni **dastur.arj** nomli fayl sifatida arxivlang;
- d) C diskning HELP katalogida joylashgan barcha txt kengaytmali fayllarni A diskning joriy katalogiga **help.arj** nomli fayl sifatida arxivlang;
- f) joriy katalogdagi kitob.arj, kitob.001, kitob.002, . . . kitob. 008 fayllarini C diskning bank katalogiga ochib joylashtiring;

TOPSHIRIQ №5

1. ARJ dan farqli arxivlash dasturlari yordamida turli amallarni bajaring va ularning natijalarini muhokama qiling
2. Quyidagi ko'rsatmalarni amalga oshiruvchi buyruq ko'rinishini yozing:
 - a) parol bilan arxivlangan A diskning COPY katalogidagi **kitob.arj** faylini oching;
 - b) joriy katalogdagi fayllarni parol qo'yib **sport.arj** nomi bilan arxivlang;
 - d) muhim zararlangan **kitob.arj** faylini oching;
 - e) joriy katalogdagi fayllarni A diskning MATEM katalogiga **matn1.arj** ko'rinishida to'g'ri tuzilayotganligini tekshirish bilan arxivlang;

V. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Fayllarni arxivlash deganda nimani tushunasiz?
2. Arxivlash dasturlariga misol keltiring.
3. Fayllarni arxivlashda ularning hajmi qanchaga qisqaradi?

VI. Uyga vazifa

1. Fayllarni arxivlash jarayonida kompyuter ekranidagi ma'lumotlarni izohlang.
2. Arxiv fayllar qanday ochiladi?
- 4 Arxivdagi fayllarni boshqa katalog yoki diskka ochish qandaj amalga oshiriladi?
5. Nima uchun fayllar bo'laklab arxivlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Abduqodirov, A.G'. Hayitov, R.R.Shodiyev. "AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" Toshkent- "O'qituvchi"-2003 y.12-16-betlar.
2. U. Yuldashev, R.R. Boqiev, F.M. Zokirova "INFORMATIRA". Toshkent. 2002yil.
3. A.Axmedov, N.Taylaqov " Informatika" Toshkent -2002
4. A. R. Marahimov, S.I.Rahmonqulova Internet va undan foydalanish asoslari «ABL_Soft», Toshkent 2001 y.
6. E.M.Appazov "Ishlab chiqarishni kompyuterlashtirish" Toshkent 2007 y.
7. WWW. SOFT.com